

VII. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi 539- son qaroriga muvofiq korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri bazasi yuritiladi.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.


Korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

Faoliyat ko'rsatayotgan

Ro'yxatdan o'tgan



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka yega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga yega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, (2024- yil 1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'tgan yilga nisbatan o'sish surati, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (103,7 %), savdo (96,3 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (92,4 %), tashish va saqlash (92,0 %), qurilish (86,3 %), sanoat (79,3 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (78,0 %), axborot va aloqa (74,8 %) va boshqa turdagi xizmatlar (102,9 %) sohalariga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- aprel holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)




2024- yil 1- aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni so'ngi besh yilda (36 274 ta) 2 775 taga ko'payganni quyidagi sohalarida korxonalar sonining sezilarli ko'paygani bilan ifodalash mumkin: savdo – 9 613 tadan 13 572 taga (o'sish

3 959 ta), sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmat koʻrsatishda – 825 tadan 1 216 taga (oʻsish 391 ta), yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlarda – 1 758 tadan 2 071 taga (oʻsish 313 ta).

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha jami faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 34,8 % savdo, 17,0 % sanoat, 6,5 % qurilish, 5,3 % yashash va ovqatlanish boʻyicha xizmatlar, 3,7 % qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi, 3,7 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 3,1 % sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish va 24,3 % boshqa faoliyat turlari hissasiga toʻgʻri keladi.

1-aprel holatiga koʻra faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar kesimida soni va oʻsish surʼati, %

(dehqon va fermer xoʻjaliklarisiz, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




2024- yil 1- aprel holatiga 32 853 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar soni, shundan xususiy korxonalar – 6 520 ta, oilaviy korxonalar - 4 700 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyat – 21 271 ta, aksiyadorlik jamiyati - 49 ta va boshqa turdagi korxonalar - 313 tani tashkil etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1-aprel holatiga ko'ra, birlikda)

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'ladilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yangi tashkil yetilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(yanvar-mart oylarida)


Farg'ona shahar	285
Qo'qon shahar	161
Marg'ilon shahar	101
Oltiariq tumani	95
Rishton tumani	95
Farg'ona tumani	94
Toshloq tumani	89
Qo'shpepa tumani	85
Quva tumani	80
Buvayda tumani	75
Uchko'prik tumani	75
O'zbekiston tumani	74
Bag'dod tumani	65
Quvasoy shahar	63
Beshariq tumani	61
Dang'ara tumani	54
So'x tumani	53
Yozyovon tumani	49
Furqat tumani	45

2024- yil yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar 1 699 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (16,8%), Qo'qon shahar (9,5%), Marg'ilon shahar (5,9%), Oltiariq tumani (5,6%), Rishton tumani (5,6%), Farg'ona tumani (5,5%), Toshloq tumani (5,2%), Qo'shpepa tumani (5,0%), Quva tumani (4,7%), Buvayda tumani (4,4%), Uchko'prik tumani (4,4%), O'zbekiston tumani (4,4%), Bag'dod tumani (3,8%), Quvasoy shahar (3,7%), Beshariq tumani (3,6%), Dang'ara tumani (3,2%), So'x tumani (3,1%), Yozyovon tumani (2,9%), Furqat tumani (2,7%) hissalariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz, 2024- yil 1-aprel holatiga ko'ra birlikda)

Yillar kesimida soni




Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(1-aprel holatiga ko'ra birlikda)




Hududiy kesimda eng ko'p kichik biznes subyektlari Farg'ona shahrida (17,0 foiz), Qo'qon shahri (10,6 foiz), Marg'ilon shahri (8,4 foiz), Oltiariq (5,9 foiz) va Uchko'prik (5,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1-aprel holatiga ko'ra birlikda)



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar

2024- yil 1- aprel holatiga ro'yxatdan o'tgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar soni 729 tani tashkil etdi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99 taga yoki 115,7 %ga o'sgan.



Davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar to'g'risida ma'lumot

2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
240 tasi qo'shma korxonalar, 246 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy va qo'shma korxonalar soni to'g'risida ma'lumot

(2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)

xorijiy korxonalar



qo'shma korxonalar



2024-yil 1-aprel holatiga chet el investitsiyasi ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 486 ta korxonalaridan 240 tasi qo'shma korxonalar, 246 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi (1- aprel holatiga ko'ra, yillar kesimida, birlikda)




Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2024- yilning 1- aprel holatiga 7 786 tani tashkil etib, ulardan 4 700 tasi yoki 60,4 % faoliyat yuritmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumotlar (1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha soni,**
(2024- yil 1- aprel holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonona – uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxonona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo'lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxonona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik subyektidir. Oilaviy korxonona faoliyati uning ishtirokchilari shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.